



**XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**XORAZM VILOYATINING
SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-IYUN
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil Yanvar-iyun oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8 333,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 115,4 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,6 %ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 14,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 36,1 % ga o'sishi kuzatildi, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 61,1 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning – 4,4 % ga kamayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,5 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,018 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2021- yil

B

0,021%

2022- yil

B

0,018 %


Yanvar-iyun

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd so'm

Yanvar-iyun

FHI,% da



2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8 054,3 mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,6 %ini tashkil etdi.

2021- yil
Yanvar-iyun


96,0 %

2022- yil
Yanvar-iyun

96,6 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,13 %ni (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,21 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 43,0 %ni (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 45,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 3,5 % (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 5,3 %) va quyi texnologiyali – 50,0 % (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 44,5 %)ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 42,2 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 144,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,1 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,7 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 155,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,5 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 71,7 %)ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da *


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip




Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)



Maxsus yengil avtomobillar






2022- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 33 876,1 tonna (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 4,7 % ga oshgan), paxta chigiti 67 620,8 tonna (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 10,3 % ga oshgan), 15 629,1 tonna paxtadan yigirilgan ip (5,4 % oshgan), 35 877 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (24,7 % oshgan), 9 863 dona maxsus yengil avtomobil (58,3 % ga oshgan), o'simlik yog'i 6 429,4 tonna (52,2 % kamaygan), xo'jalik sovuni 1 387,3 tonna (49,6 % kamaygan) hamda 46 541,2 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (102,9 % bo'lgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona	28772	35877	7105
Maxsus yengil avtomobillar, dona	6230	9863	3633
Paxtadan yigirilgan ip,tonna	14830,2	15629,1	798,9
Paxta tolasi,tonna	32350,7	33876,1	1525,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	45223,2	46541,2	1318
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	13438,4	6429,4	-7009

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 95,0 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,4 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 57,0 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 1 887,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,3 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 46,4 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 342,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2020- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 135,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,6 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 88,9 %ni, ishlab chiqarish hajmi 1 741,7 mlrd so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 190,7 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 49,7 %ni va ishlab chiqarish hajmi 67,5 mlrd so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2020- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,16 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 21,6 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,13 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 66,7 %ni va ishlab chiqarish hajmi 10,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-iyun oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,0 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 101,2 %ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni, fizik hajm indeksi 56,4 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 30,3 mlrd so'mni tashkil etdi.




Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 89,1 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni, fizik hajm indeksi 148,8 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2020- yil yanvar-iyun oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,25 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 76,7 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 %ni, fizik hajm indeksi 128,0 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 147,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-iyun oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 47,8 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,4 %.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 42,2 %ni, fizik hajm indeksi 113,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 399,0 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 225,6 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,7 %ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 36,1 %ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	90,2	170,8	80,6
Issqlik energiyasi, ming gkal	47,6	45,1	-2,5
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	881464,0	922658	41194

Yanvar – iyun, yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,4 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	2264228,0	3094344,0	830116,0
Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	60712387,0	62849805,0	2137418,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	11278317,0	10500081,0	-778236,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 36,7 %ga, tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 3,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 259,1 mlrd so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 123,5 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 63,1 %ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-iyun

25,9%

2022- yil
yanvar-iyun

38,5%

Nooziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-iyun

74,1

2022- yil
yanvar-iyun



61,5%

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 69,5 %ni , Urganch shahrida 12,4 %ni va Urganch tumanida 3,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (123,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida (123,7 %), Gurlan tumanida (145,6 %), Yangibozor tumanida (209,0 %) hamda Urganch tumanida (167,1 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 69,5 %ni , Urganch shahrida 12,4 %ni va Urganch tumanida 3,5 %ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 82,3 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 5,4 %ni, Yangibozor tumanida 2,0 %ni tashkil etdi.

2 592,9


mlrd so'm

2021-yil yanvar-iyun



3 231,9

mlrd so'm

2022-yil yanvar-iyun



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi




Xorazm viloyati	124,6	3231,9
Urganch shahri	107,6	174,6
Xiva shahri	131,6	48,6
Bog'ot tumani	111,7	25,5
Gurlan tumani	182,2	32,8
Qo'shko'pir tumani	91,6	23,6
Urganch tumani	124,3	46,0
Hazorasp tumani	113,6	22,1
Tuproqqal'a tumani	124,9	2660,2
Xonqa tumani	102,5	58,5
Xiva tumani	98,7	21,8
Shovot tumani	91,0	21,8
Yangiariq tumani	127,1	30,4
Yangibozor tumani	505,0	66,0

o'sish sur'ati

mlrd so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 49,2 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 23,2 %ni, Urganch tumanida 6,8 %ni tashkil etdi.




1 662,8 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-iyun



2 022,4 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-iyun



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

38,5%



o'sish sur'ati
mlrd so'm

Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 54,4 %, shuningdek, Urganch shahrida 15,2 %ni, Urganch tumanida 5,3 %ni, Shovot tumanida 4,0 %ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2021- yil

6 051,9 mlrd so'm

2022- yil

8 333,8 mlrd so'm



2021- yil

109,5 %

2022- yil

115,4 %

Xorazm viloyati	115,4	8333,8
Urganch shahri	108,5	1266,6
Xiva shahri	106,2	105,2
Bog'ot tumani	104,2	214,8
Gurlan tumani	142,4	271,0
Qo'shko'pir tumani	99,2	195,7
Urganch tumani	116,1	440,5
Hazorasp tumani	98,6	174,3
Tuproqqal'a tumani	117,4	4536,3
Xonqa tumani	105,6	299,1
Xiva tumani	110,3	125,4
Shovot tumani	102,4	332,1
Yangiariq tumani	117,4	173,0
Yangibozor tumani	114,2	199,9

FHI, % da

mlrd so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (7 9762,6 ming so'm), Urganch shahrida (8 591,9 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 274,7 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Xorazm viloyati	113,5	4317,2
Urganch shahri	106,9	8591,9
Xiva shahri	104,3	1101,1
Bog'ot tumani	102,4	1263,0
Gurlan tumani	140	1776,7
Qo'shko'pir tumani	97,9	1109,0
Urganch tumani	113,8	2135,2
Hazorasp tumani	97,4	874,5
Tuproqqal'a tumani	113,8	79762,6
Xonqa tumani	103,8	1556,0
Xiva tumani	108,6	836,2
Shovot tumani	100,8	1900,4
Yangiariq tumani	115,6	1450,6
Yangibozor tumani	112,4	2227,8

o'sish sur'ati
ming so'm

Xorazm viloyati

2021- yil

3 187,1 ming so'm

2022- yil

4 317,2 ming so'm



107,9 %


2021- yil

113,5 %

2022- yil

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 302,1 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 15,6 %ni tashkil etdi.



ulushi, % da
mlrd soʻm

Xorazm viloyati

2021- yil

996,2 mlrd soʻm

2022- yil

1 302,1 mlrd soʻm



21,9 %

2021- yil

15,6 %

2022- yil

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 724,4 ming so'm bo'lgani holda, Tuproqqal'a tumanida 64 268,8 ming so'mni, Urganch shahrida 4 406,7 ming so'mni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2021- yil

2 243,5 ming so'm

2022- yil

2 724,4 ming so'm



109,5 %

2021- yil

121,4 %

2022- yil

Xorazm viloyati	121,4	2724,4
Urganch shahri	115,8	4406,7
Xiva shahri	119,2	821,6
Bog'ot tumani	109,6	496,2
Gurlan tumani	143,1	530,5
Qo'shko'pir tumani	93,1	273,7
Urganch tumani	163,8	891,3
Hazorasp tumani	105,3	247,8
Tuproqqal'a tumani	119,9	64268,8
Xonqa tumani	114,3	851,0
Xiva tumani	101,3	318,1
Shovot tumani	98,8	395,7
Yangiariq tumani	114,3	474,2
Yangibozor tumani	205,6	1025,4

o'sish sur'ati

ming so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 499 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 834 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,6 %) Urganch shahriga, 522 tasi (11,6 %) Urganch tumaniga, 403 tasi (9,0 %) Qo'shko'pir tumaniga, 406 tasi (9,0 %) Xonqa tumaniga va 377 tasi (8,4 %) Xiva shahriga to'g'ri kelmoqda.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi bo'yicha 110 ta loyiha mavjud bo'lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar - iyun oylarida 494,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 4 400,9 ming AQSH dollarlik mahsulot eksport qilinib, 406 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Dastur ijrosining shahar va tumanlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahrida 29 ta loyihada 96,706 mlrd so'mlik, Xiva shahrida 3 ta loyihada 0,090 mlrd so'mlik, Bog'ot tumanida 4 ta loyihada 3,188 mlrd so'mlik, Gurlan tumanida 12 ta loyihada 22,676 mlrd so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 4 ta loyihada 1,200 mlrd so'mlik, Urganch tumanida 10 ta loyihada 18,849 mlrd so'mlik, Hazorasp tumanida 5 ta loyihada 0,244 mlrd so'mlik, Tuproqqal'a tumanida 16 ta loyihada 321,239 mlrd so'mlik, Xonqa tumanida 5 ta loyiha 7,161 mlrd so'mlik, Xiva tumanida 6 ta loyihada 1,189 mlrd so'mlik, Shovot tumanida 5 ta loyihada 19,739 mlrd so'mlik, Yangiariq tumanida 4 ta loyihada 1,110 mlrd so'mlik va Yangibozor tumanida 7 ta loyihada 1,021 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

	2022 - yil yanvar-iyun	2021 - yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, birlik	110	110
Korxonalar soni, birlik	93	87
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm	494,4	106,6